Ushbu o‘zaro bog‘liqlikni amaliy misolda ko‘rish mumkin: talaba o‘zbek naqqoshligi naqshlarini o‘rganish jarayonida, avval, ularning tarixiy-ramziy ma’nosi haqida bilim oladi (bilim beruvchi funksiya), so‘ngra shu bilim asosida naqshni obrazli tahlil qilib, o‘z kompozitsion yechimini izlaydi (rivojlantiruvchi funksiya), amaliy ijod jarayonida naqshni qo‘li bilan yaratib, unga nisbatan shaxsiy-qadriyatli munosabat shakllantiradi (tarbiyalovchi funksiya) va yakunda rang hamda kompozitsion muvozanat qonuniyatlarini ongli qo‘llagan holda asarini yakunlaydi (estetik funksiya). Bu misol to‘rt funksiyaning bitta pedagogik topshiriq doirasida ketma-ket va uzviy tarzda amalga oshishini yaqqol ko‘rsatadi.

5. Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida milliy komponentning didaktik ahamiyati to‘rtta o‘zaro bog‘liq funksiya – bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va estetik – orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi va asoslandi, bu esa uni ta’lim mazmunining tasodifiy emas, ilmiy asoslangan zaruriy qismi sifatida qarash lozimligini tasdiqlaydi.

Amaliy ahamiyati: bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda quyidagilar tavsiya etiladi:

1) fanlararo bog‘liqlik orqali bilim beruvchi funksiyani ro‘yobga chiqarish;

2) obrazli-ijodiy tahlil topshiriqlari orqali rivojlantiruvchi funksiyani ta’minlash;

3) amaliy-ijodiy faoliyat orqali tarbiyalovchi funksiyani mustahkamlash;

4) rang-kompozitsiya tahlili orqali estetik funksiyani rivojlantirish.

Kelgusi tadqiqotlar uchun taklif: ushbu to‘rt funksiyaga asoslangan dars ishlanmalari tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений, Москва, издательский центр “Академия”, 2002, 576 с.

(2).Волков Г.Н. Этнопедагогика, Учебник, Москва, издательский центр «Академия», 2000, с. 168.

(3). Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2012.

(4). Ladson-Billings G. Culturally Relevant Pedagogy. Asking a Different Question. New York, Teachers College Press, 2021, 224 p.

(5). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “Tasviriy san’at” fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va namunaviy o‘quv dasturi. Toshkent, 2021.

Achilova Sevara Djasirkulovna (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti “Maxsus pedagogika” kafedra dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); E-mail: achilovasevara85@gmail.com)

OG‘IR NUTQ NUQSONLARI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHGA BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI TAYYORLASH BOSQICHLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada og‘ir nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga bo‘lajak logopedlarni tayyorlash bosqichlari va ularni amalga oshirishning pedagogik strategiyalari haqida yoritilgan. Bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlarni bir-biridan farqlash, ularga to‘g‘ri tashxis qo‘yishda nazariy va maliy bilimlarning ahamiyati, ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan metod va metodikalarni qo‘llash ishlari. Shuningdek, bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan tayyorlash bosqichlari va pedagogik strategiyalardan foydalanish ishlari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *defektologiya, logopediya, duduqlanish nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni, alaliya nutq nuqsoni, korreksiya, adaptatsiya, logopedik zond, shpatel, ritm, tembr, nutqiy nafas, motorika.*

Ачилова Севара Джасиркуловна (Чирчикский государственный педагогический университет, кафедра специальной педагогики; доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент; E-mail: achilovasevara85@gmail.com)

ЭТАПЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ, ИМЕЮЩИМИ ТЯЖЕЛЫЕ НАРУШЕНИЯ РЕЧИ, И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье описываются этапы подготовки будущих логопедов к работе с детьми, имеющими тяжелые нарушения речи, а также педагогические стратегии реализации этой подготовки. Рассматриваются вопросы дифференциации различных видов тяжелых нарушений речи, роль теоретических и практических знаний в их правильной диагностике, а также применение методов и приемов, направленных на их устранение. Кроме того, представлены этапы обуче-*

ния и педагогические стратегии, используемые будущими логопедами в работе с данной категорией нарушений.

Ключевые слова: *дефектология, логопедия, заикание, ринолалия, дизартрия, алалия, коррекция, адаптация, логопедический зонд, шпатель, ритм, тембр, речевое дыхание, моторика.*

Achilova Sevara Jasirkulovna (Chirchik State Pedagogical University, Department of Special Education; PhD in Philosophical Sciences, Associate Professor; E-mail: achilovasevara85@gmail.com)

STAGES OF PREPARING FUTURE SPEECH THERAPISTS TO WORK WITH CHILDREN WITH SEVERE SPEECH DISORDERS AND THE PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR THEIR IMPLEMENTATION

Annotation. *The article outlines the stages of preparing future speech-language pathologists to work with children who have severe speech disorders, as well as the pedagogical strategies employed in this training. It examines the differentiation of various types of severe speech disorders, the role of theoretical and practical knowledge in their accurate diagnosis, and the application of methods and techniques aimed at remediating them. Furthermore, the article presents the training stages and pedagogical strategies used by future speech-language pathologists when addressing this category of disorders.*

Keywords: *Special education, speech therapy, stuttering, rhinolalia, dysarthria, alalia, correction, adaptation, speech therapy probe, tongue depressor, rhythm, timbre, speech breathing, motor skills.*

Kirish. Jamiyatni rivojlanishi, taraqqiy etishi natijasida insonlarning dunyo qarashi, bilim oshishiga olib keladi. Rivojlanib kelayotgan mustaqil davlatning ta'limi har tomonlama jahon andozasiga javob beradigan kadrlarni tayyorlash orqali, davlatning rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishilish imkonini beradi. Hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlod har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishi uchun zamonviy texnologiyalardan, pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lishi shart. Chunki jamiyatda har bir inson o'z o'rini to'g'ri topa olishi va tengdoshlaridan ortda qolmasligi shart bo'lib qolmoqda. Respublikamizda ta'limni rivojlanishida turli xil rivojlangan mamlakatlarning ayniqsa, bizning mintolitetimizga to'g'ri keladigan davlatlarning ta'lim tajribalari bugungi kunda keng o'rganilmoqda. Shuningdek, ularning tajribasi bizning ta'limda ma'lum bir qismlari qo'llanilmoqda. Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, oliy ta'lim bilamizki, bir-biri bilan bog'liqdir. Shu bosidan kadrlarni tayyorlashda uchala ta'limning maqsad va vaziflari mazmuni bir-birini boyitgan holda rivojlanishi yetuk kadrni yetishishiga olib keladi [1].

Adabiyotlarning tahlili va metodologiya. Oliy ta'limda bo'lajak logoped kadrlarni tayyorlashda muassasada o'tiladigan fanlar o'zaro bog'liq holda o'tkazilishi, oddiydan murakkabga qarab darslarni o'tkazilishi natijasida bo'lajak logopedlarni yaxshi bilim olishiga ta'sir qiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan talablar bir nechta bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri bular, muassasaning so'nggi zamonviy texnik baza bilan ta'minlanganligi, nazariy va amaliy bilimlarni bog'lash maqsadida laboratriyalarni tashkil qilinganligi hamda 4+2 amaliyotlarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim muassasalarida, oilaviy poliklinikalarda tashkil qilish hisoblanadi. Ma'lumki, defektologiyani to'rtta asosiy yo'nalish mavjud bular, logopediya yo'nalishi, surdopedagogika yo'nalishi, oligofrenopedagogika yo'nalishi, tiflopedagogika yo'nalishlaridir. Har bir yo'nalishlar o'zlarining metoda va metodikalar mavjud bo'lib, ushbu metod-metodikalar rivojlanishida muammosi bo'lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni nuqsonlarini bartaraf etishga ko'mak beradi. L.R.Muminovaning fikricha, nutqining beqarorligi turli kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo'lishi tilni bilish darajasi kabi omillar bilan belgilanadi. N.X.Rahmonqulova duduqlanishni "nutqning kommunikativ funksiyasining buzilishi, hissiy-irodaviy sifatlarning notekis yetilishi, til vositalarining yetarli darajada shakllanmagani", deb ta"riflaydi. U.M. Utbasarova olib borgan tadqiqot natijalari asosida duduqlanishda "muloqot jarayonida birlamchi nafas, ovoz va artikulatsiya a"zolaridagi pay tortishishlar, ikkilamchi duduqlanish asosida yuzaga keladigan miya yarimsharlari disfunksiyasi bilan namoyon bo'ladigan nutq muvozanatining buzilishi" asosida namoyon bo'ladi, degan xulosaga kelgan (2;11-b.).

MDH davlatlarida duduqlanish nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik imkoniyatlari L.Z.Arutunyan, G.A.Volkova, S.V.Del, V.P. Dobriden, I.F.Pavalaki, E.R.Saitbayeva, V.I.Seliverstov, V.I.Terenteva, N.A.Cheveleva, T.G.Shishkova, A.V.Yastrebova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy davlatlarida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik diagnostikalash masalalari bo'yicha O.Bloodstein, P.Finn, T. Fox Peter, R.Ingham, A.Tendera, H.Chon, T.Loucks, S.Jacobs, D.Watson, M.Rispoli, A.Cordes va boshqalar tadqiqotlar olib borgan (2;6-b.).

L.B.Litvak dizartriya nutq buzilishlarini lokal-diagnostik ahamiyatiga o‘z e’tiborini qaratdi. Dizartriya deganda muallif faqat artikulatsiya buzilishlarini tushundi, ammo o‘z fikriga qarshi ular qatoriga nutqning temp, ritm, ravonligining buzilishi kabi turli xil nuqsonlarni kiritdi (4;188-b.).

Tadqiqot metodologiyasi. N.I.Pirogov (1844), N.V.Voronsovskiy (1875), P.Subbotin (1895), M.I. Paykin (1996) o‘zlarining ishlarida operativ tadbirlar ta’sirida tanglay razmeri qay darajada o‘zgarishi, tanglay razmerlarining qaysi ko‘rsatgichlari manqalanishdagi logoterapiyaga yaxshi ta’sir ko‘rsatishi kabi masalalarni muhokama qilganlar. N.I.Pirogovning shogirdi N.I.Voronsovskiy 1870-yilda normal nutqni tiklash yo‘lida uranoplastika qilish orqali oldinga bir qadam qo‘yildi deb ta’kidlagan. Uning fikricha, uranoplastikadan keyin ham manqalanishni saqlanib qolishining sababi yumshoq tanglayning ikkilamchi qisqarishi, harakatchanligining yetishmovchiligidir. Lekin, uning fikricha, talaffuzdagi nuqsonlarni har kuni mashq qilish orqali korreksiyalashda nutq sekin-asta tushunarli bo‘la boshlaydi.(4;139–140-b.).

Respublikamizda yuqori lab va tanglayning tug‘ma kemtiklarini tashxislash, davolash va reabilitatsiyalarini takomillashtirish R.Amanullayev, A.Azimov, M.Dusmuhamedov, S.Murtazayev, M.Ubaydullayev, Sh.Shokirov, Q.Shomurodov, A.Yuldashev; nutq rivojlanmaganligining turli jihatlarini o‘rganish Z. Ahmedova, M.Ayupova, N.Abidova, Y.Boboyeva, O.Bozorov, L.Mo‘minova, X.Po‘latova, N.Rahmonqulova, Sh.Toxtiyarova, V.Veretennikova; jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalashning korreksion-pedagogik tizimini rivojlantirish Sh.Amirsaidova, U.Fayziyeva, Z.Mamarajabova, D.Nazarova, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuhamedova, F.Qodirova, V.Rahmonova, N.Sosedova, M.Hamidova, D.Yaqubjonova, R.Shomahmudovalarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. MDH mamlakatlarida bolalardagi rinolaliya va rinofoniyani barataraf etishning uslubiy yo‘nalishlarini takomillashtirish V.Agayeva, A.Balakireva, T.Voronsova, L.Vansovskaya, T.Volosovets, G.Gutsman, A. Dorinskaya, I.Yermakova, A.Ippollitova, Z.Nelyubova, F.Rau, N.Serebrova, S.Taptapova, M.Xvatsev, G. Chirkinalar tadqiqotlarida yoritilgan (3;7–8-b.).

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan MDH mamlakat olimlari va milliy olimlarimizning ilmiy tadqiqot ishlariga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, har bir olim o‘zining ilimiy ishida bo‘lajak mutaxassis logopedlar bilish ilozim bo‘ladigan tadqiqot ishlarini yoritib o‘tganlar. Hozirgi vaqtda bo‘lajak logopedlar og‘ir nutq nuqsonlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan tayyorlash bosqichlari va pedagogik strategiyalardan foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, og‘ir nutq nuqsonlarni o‘rganishda bo‘lajak logopedlarga zarur bo‘ladigan tayyorlash bosqichlari mavjud, bular: kasbiy refleksiya, kasbiy motivatsiya, kasbiy adaptatsiya, kasbiy tranformatsiya, kasbiy instruksiyalar sanaladi. Talabalar og‘ir nutq nuqsonlari ustida ishlashda ushbu bosqichlar muhim sanaladi. Har bir bosqichlarning maqsadi bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash hamda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘rganishga turtki bo‘ladi. Har bir bosqichga qisqacha tar’rif beradigan bo‘lsak; “Kasbiy refleksiya – bu o‘z faoliyatini tahlil qilish; kasbiy motivatsiya–bu kasbiy faoliyatga undash; kasbiy adaptatsiya – bu kasbiy muhitga moslashish; kasbiy transformatsiya–bu kasbiy sifatlarni yangilash va rivojlantirish; kasbiy instruksiya–bu kasbiy vazifalarni bajarish tartibini belgilash” ma’nolarni beradi. Og‘ir nutq nuqsonlarni tahlil qilishda bo‘lajak logopedlar pedagogik strategiyalardan habardor bo‘lishi lozim. Pedagogik strategiya–bu ta’lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun pedagog tomonidan tanlanadigan, o‘zaro bog‘liq usul, shakl, vosita va amaliy yondashuvlarning maqsadli tizimidir. Logopedik-pedagogik strategiya–bu nutqida nuqsoni bo‘lgan bolaning individual xususiyatlari va korreksion ehtiyojlarini hisobga olgan holda, uning nutqiy rivojlanishini ta’minlash, kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va mavjud nutq nuqsonlarini korreksiyalashga qaratilgan usul, yondashuv va amaliy harakatlarni maqsadli tanlash hamda izchil qo‘llash tizimidir. Har ikkala ta’riflardan kelib chiqqan holda bitta ta’rif ham berib o‘tish mumkin, ya’ni, logopedik-pedagogik strategiya–bu bolaning individual nutqiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, korreksion maqsadlarga erishishni ta’minlovchi usul va yondashuvlarni maqsadli tanlash hamda qo‘llash tizimi.

Natija va muhokamalar. Pedagogik va logopedik strategiyalarni korreksion-logopedik ishlarda to‘g‘ri qo‘lay olishda, og‘ir nutq nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalarda ya’ni, dizartriya nutq nuqsonida, rinolaliya nutq nuqsoni, dudulanish nutq nuqsoni, alaliya nutq nuqsonlari kabilarda logopedik zondlardan, shpatellardan korreksion-logopedik ishlarni olib borishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik straegiyalarni qo‘llashda yana eng muhim logopedik ishlardan biri og‘ir nutq nuqsonga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas, tembr, ritm, motorikani to‘g‘ri rivojlantirishga yordam beradi hamda og‘ir nutq nuqsonga ega bo‘lgan bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni tekshirish, tahlil qilish, natijalar asosida to‘g‘ri tashxis qo‘yish va korreksion-metodik ishni tashkil qilishga olib keladi. Amaliyotchi logopedlardan ma’lumki, og‘ir nutq nuqsonlar ustida ishlash juda murkkab jarayon bo‘lib, maxsus muassasalarda og‘ir nutq nuqsonlar 60–70%ni tashkil qiladi. Shu raqamlarga tayanadigan holda ish olib boriladigan bo‘lsak, oliy ta’limda bo‘lajak logope-

dar 4+2 amaliyot bilan birgalikda, mustqil ta'lim bo'yicha vazifalarni ham olib borish muhimligi kelib chiqadi. Mustaqil ta'lim vazifalari, topshiriqlari bo'lajak logopedlarda mustaqil holda og'ir nutq nuqsonlarni qo'shimcha manbalardan foydalangan holda (internet ma'lumotlardan, amaliyotchi logopedlardan) o'zlarining ustida ishlash imkonini beradi. So'nggi yillarda, milliy olimlarimiznin tahlil ishlarini o'rganadigan bo'lsak, bular S.Achilova, Sh.Shokirova, N.Abidova, S.Xodjabekova kabi olimlar og'ir nutq nuqsonlar ichida rinolaliya nutq nuqsoni, dduduqlanish nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni bo'yicha korreksion-logoedik ishlarga katta e'tibor berayotganligi aniqlash mumkin. Ularning tadqiqot natijalarida har bir og'ir nutq nuqsonni erta aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish, bartaraf etish uchun logopedik ishni to'g'ri va aniq belgilash lozimligi ta'kidlab o'tadilar.

Xulosa. Og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan ishlashga bo'lajak logopedlarni tayyorlash uzluksiz, bosqichma-bosqich va nazariy-amaliy bilimlar uyg'unligi asosida tashkil etilishi zarur. Dizartriya, rinolaliya, duduqlanish va alaliyani erta aniqlash, to'g'ri tashxislash hamda korreksion vositalardan maqsadli foydalanish bo'lajak logopedlarning amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi. 4+2 amaliyot tizimini mustaqil ta'lim bilan uyg'unlashtirish va nazariy, amaliy hamda kasbiy tayyorgarlikni integratsiyalash asosida pedagogik strategiyalarni takomillashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Toshkent, 2025,19-mart.

(2). Xodjabekova Surayyo. Og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2025, 6;11-bet.

(3). Sh.Shokirova. Kompleks yondashuv asosida yuqori lab va tanglayning tug'ma kemtiklari bo'lgan bolalarda korreksion logopedik ishni takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2024.

(4) .S.J.Achilova. Logopediya. Darslik, Chirchiq, 2025,139,140,188-betlar.

(5) .S.J.Achilova. Og'ir nutq nuqsoni bo'lgan dizartriya nutq kamchiligi bilan ishlashning o'ziga xos metodik tizimi va ularni talabalarga o'rgatish metodlari. Mug'allim həm yzliksiz bilimlendirio'. Ilimiy-metodikalыq jurnal, 2026, 1/2-son, 399–405-betlar.

(6) .S.J.Achilova. Bo'lajak logopedlar rinolaliyani og'ir nutq nuqsoni sifatida o'rganishda qo'llaniladigan topshiriqlarning ahamiyati. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali, 2026-yil, aprel, 4(3)-son, 240–243-betlar.

(7) .S.J.Achilova. Peculiar aspects of determining the pedagogical and psychological characteristics of the development of children with severe speech impairment. Omega Journal of Inclusive Education and Practice ISSN (E): 3072-4694. Volume 01, Issue 02, May, 2026, p. 113–120 Website: https://omegajournals.org Licensed under a Creative Commons Attribution 4.0 International License. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UIwzmp8AAAAJ&citation_for_view=UIwzmp8AAAAJ:IjCSPb-OGe4C/

Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich (Farg'ona davlat Texnika universiteti)

"ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQARISH, UZATISH VA TAQSIMLASH" FANINI O'QITISHGA MOS INTERFAOL METODLAR ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya. *Maqolada "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash" fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Texnik fanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, talabalarning texnik fikrlashi va amaliy faolligini rivojlantirishga qaratilgan "Energiya sarguzashti" interfaol metodi taklif etilgan. Metod orqali issiqlik elektr stansiyasining asosiy qurilmalari va energiya aylanish jarayoni muammoli vaziyatlar asosida o'zlashtiriladi. Metodning bosqichlari va ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *elektr energetikasi, interfaol metod, texnik ta'lim, issiqlik elektr stansiyasi, energetik jarayon, energiya aylanishi, texnik fikrlash.*

РАЗРАБОТКА ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ, АДАПТИРОВАННЫХ К ПРЕПОДАВАНИЮ ДИСЦИПЛИНЫ «ПРОИЗВОДСТВО, ПЕРЕДАЧА И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ ЭНЕРГИИ»

Аннотация. *В статье рассмотрены возможности использования интерактивных методов при преподавании дисциплины «Производство, передача и распределение электрической энергии». С учетом особенностей технических дисциплин предложен интерактивный метод «Энергетическое приключение», направленный на развитие технического мышления и практической активности студентов. Посредством метода изучаются основные элементы тепловой электростанции и про-*